

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti,
tayanch doktoranti
Elektron pochta: Ishboboyevagulbarchin@gmail.com



SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA BIKARYER OILALARDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARI TALQINI

Annotatsiya. *Maqola ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar muammosiga bag'ishlangan. Oilada bola va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, farzand tarbiyasi, ikki tur vakillarining muloqot masalalari, yuzasida Sharq mutafakkirlari fikrlari va qarashlari, bikaryer oilalarda ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Bugungi kunda oiladek ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarni qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy-axloqiy munosabatlarni hosil qilish kabi dolzarb masalalar tahlil qilinadi.*

Аннотация. *Статья посвящена проблеме взаимоотношений родителей и детей. Были проанализированы взаимоотношения ребенка и родителей в семье, воспитание детей, вопросы общения представителей двух видов, мысли и взгляды основных восточных мыслителей, особенности взаимоотношений родителей и детей в двуличных семьях. Сегодня анализируются актуальные вопросы формирования у детей убеждений в отношении ценностей через такой влиятельный социальный институт, как семья, и тем самым формирования позитивно-нравственного отношения к семье.*

Annotation. *The article focuses on the problem of the relationship between parents and children. In the family, the relationship between the child and parents, the upbringing of the child, the issues of communication of representatives of the two species, the opinions and views of the main Eastern thinkers, the specifics of the relationship between parents and children in bicarrier families were analyzed. Today, through such an influential social institution as a family, current issues of forming children's beliefs about values, and thereby generating positive-moral attitudes towards the family are analyzed.*

Tayanch soʻzlar: *oila, nikoh, ijtimoiy vazifalar, ota-ona munosabatlari, farzand tarbiyasi, buyuk allomalarimizning asarlari, milliy stereotiplar, yaxshi xulq.*

Ключевые слова: *семья, брак, социальные задачи, родительские отношения, воспитание детей, труды наших великих ученых, национальные стереотипы, хорошее поведение.*

Keywords: *family, marriage, social tasks, parental relationships, child rearing, works of our great allomas, national stereotypes, good behavior.*

Kirish. Oila — nikoh yoki tugʻishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning aʼzolari roʻzgʻorining birligi, oʻzaro yordami va maʼnaviy masʼuliyati bilan bir-biriga bogʻlangan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila aʼzolarining turmush sharoitini va boʻsh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular tasirida oʻzgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat oʻzgarib, mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni oʻrnatadi.

Mamlakatimizda oila, oilaviy munosabat, yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Maʼrifatparvar bobolarimiz merosini chuqur oʻrganishimiz kerak. Bu maʼnaviy xazinani qanchalik koʻp oʻrgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda koʻp savollarga toʻgʻri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targʻib qilsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”, – deb taʼkidlaganlaridek, bugungi kunda nikoh-oila munosabatlari zaminida yuzaga kelayotgan koʻplab savollarga javobni oʻtmish mutafakkirlarimiz ishlarida koʻrishimiz mumkin. Shunday ishlardan biri hamyurtimiz Burhoniddin Margʻinoniy qalamiga mansub “Hidoya” asaridir. Yozilganiga ming yildan oshgan mazkur asar ming yildan buyon islom universitetlarida Fiqiq ilmidan darslik sifatida foydalanib kelingan boʻlsa-da, biroq biz unga yetarlicha ahamiyat bermay, qonunchilik ishlarida, ayniqsa, nikoh-oila qonunchiligida undan foydalanmaganmiz. Bugungi kunda jahon miqyosida oilaviy munosabatlar, xususan, oʻsmirlik yoshidagi oʻzaro munosabatlar, ota-ona va farzand oʻrtasidagi nizolar hamda ularning kelib chiqish sabablarini oʻrganish masalalari dolzarb muammolardan sanaladi. Chunki shaxs shakllanishida oiladagi muhit, ota-ona va farzandlar oʻrtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy nizolar oqibatida roʻy berayotgan holatlar, oilalarning barbod boʻlishi, millatlar, davlatlarning oʻzaro kelishmovchiligi yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy taʼsir koʻrsatishidan dalolat beradi.

Maqsad va uni asoslash. Ota-onalar va ularning munosabatlari bola uchun namuna ekanligini aniq bilishlari kerak.

Bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar psixologiyasi quyidagi muhim fikrlarni o'z ichiga oladi:

- aloqa;
- birgalikda faoliyat;
- ota-onalarning bola xarakterini shakllantirishga ta'siri;
- bolaning ota va ona munosabatlariga ta'siri.

Oila ichidagi munosabatlar hamma bir-biriga hurmat va ishonch bildirganda, muhim qarorlar qabul qilishda barcha oila a'zolarining fikrlarini hisobga olganda muvaffaqiyatli bo'ladi. Ammo oilada tushuncha, ishonch, o'zaro hurmat bo'lmasa, qarama-qarshi variant ham mavjud.

Oila ichidagi munosabatlarning bir necha turlari mavjud:

- barcha oila a'zolarining manfaatlarini hisobga olgan holda o'zaro manfaatli hamkorlik;
- raqobat – bu yerda har bir kishi oilaning yetakchisi bo'lishga va o'z ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi, hatto qolgan a'zolarining manfaatlarini buzish orqali ham;
- birlashma – hujayradagi barcha odamlar o'zlarining afzalliklariga ega;
- qarama-qarshilik – bu boshqa oila a'zolariga jiddiy zarar etkazish bilan tahdid qilsa ham, asosiy bo'lishga intilish;
- qarama-qarshilik oilaviy maqomidan qat'i nazar, bir-birining istaklari va fikrlarini butunlay rad etish.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-onadan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa, o'z navbatida, oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bola tarbiyasi o'ta murakkab va mas'uliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Farzand tarbiya qilganda odatda o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullanadi. Albatta, bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim.

O'zbekistonda oila va undagi o'zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo'lgan ma'lum

Oila ichidagi munosabatlar hamma bir-biriga hurmat va ishonch bildirganda, muhim qarorlar qabul qilishda barcha oila a'zolarining fikrlarini hisobga olganda muvaffaqiyatli bo'ladi. Ammo oilada tushuncha, ishonch, o'zaro hurmat bo'lmasa, qarama-qarshi variant ham mavjud.

***XIX-XX asrda
Turkiston
zaminida kechgan
milliy uygʻonish
davrining nafaqat
adabiyoti, balki
ijtimoiy-siyosiy,
maʼnaviy-maʼrifiy
hayotiga ham
kuchli turtki
bergan qomusiy
ilm egasi, professor
Abdurauf
Fitratning oila
haqidagi psixologik
qarashlari mana
qariyb yuz yildirki,
oʻz ahamiyatini
zarracha
yoʻqotmay
kelayotir.***

qonuniyatlar borligini dalillaydi. Shu bois ham mavjud muammoni hududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda oʻrganish zarur. Taʼkidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Margʻiloniy, Mahmud Qoshgʻariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Xojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, hamda hozirgi davr Oʻzbekiston olimlari M.G.Davletshin, Gʻ.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.Gʻ.Gʻoziyev, Sh.R.Baratov, M.Mamatov, B.M.Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin oʻrtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada taʼsir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtayi nazaridan oʻrganilgan. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish biz tomondan koʻtarilgan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. Tanlangan mavzuyimiz xuddi mana shuning uchun ham dolzarbdir.

XIX-XX asrda Turkiston zaminida kechgan milliy uygʻonish davrining nafaqat adabiyoti, balki ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy hayotiga ham kuchli turtki bergan qomusiy ilm egasi, professor Abdurauf Fitratning oila haqidagi psixologik qarashlari mana qariyb yuz yildirki, oʻz ahamiyatini zarracha yoʻqotmay kelayotir. Buning sababi u ilgari surgan gʻoya va mulohazalar insoniy muhabbat, mehr-u vafo, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, millat kelajagi singari boqiy qadriyatlarga bagʻishlangan. “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bogʻliq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli boʻladi”. Shu oʻrinda aytish kerakki, mamlakatimizda oila institutining barqarorligini taʼminlash, oilalar tinchligini asrash boʻyicha olib borilayotgan ishlar bejiz emasligidan dalolat beradi.

Buyuk allomalarimizning bebaho asarlarida bayon etilgan ota-ona va bola munosabati borasidagi qarashlariga alohida toʻxtalib oʻtish lozim. Oiladagi tarbiya, ota-ona va bolaning oʻzaro munosabatidagi oʻziga xoslik avloddan avlodga oʻtib kelayotgan qadriyatlar va urf-odatlar, shuningdek, milliy stereotiplarga bogʻliq boʻladi. Shuni aytib oʻtish joizki, yuqoridagi fikrlarimizning isbotini koʻplab psixologik, pedagogik asarlarda koʻrishimiz mumkin. Forobiyning mazkur qoidasiga muvofiq bolaning psixik rivojlanishida ota-onaning ruhan va jismonan sogʻlomligi taʼsiriga bevosita biologik omil nuqtayi nazaridan qarasak, ularning oiladagi bolaga boʻlgan munosabat xarakteri hamda atrofdagilar bilan

o‘zaro munosabatini bolaning ijtimoiylashuviga, hamkorlik aloqalari tendensiyasi rivojlanishiga, maqsadli faoliyatga kirishishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omil sifatida ko‘rishimiz mumkin. Uning mazkur qarashlarida ota-onaning funksiyalariga e’tibor qaratish lozimligi masalasi ochib berilgan.

Abu Nasr Forobiyning pedagogik va psixologik ilmiy qarashlari oilada bola shaxsi shakllanishida muhim ahamiyatga ega. O‘lmas ilmiy asarlar muallifi Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “E’tiqodlar va dinlar haqida”, “Mineralogiya” asarlarida ota-onaning bolaga munosabati va uning ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati haqida bir qancha muhim fikrlarni qayd etgan. “Beruniy ota-onalarga qarata bola xulqini mo‘tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish va xafalikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ular xohlagan hamda foydali narsani topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligi uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Yaxshi xulqlar paydo bo‘lishi bola ruhiyatiga ta’sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o‘shishiga ham yordam beradi. Yomon xulq esa turli mijoz buzilishiga ham olib keladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Bola organizmidagi o‘zgarishlar uning ruhiyatidagi, xatti-harakatidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ulug‘ allomalarimiz bola xulq-atvorining mo‘tadilligi natijasida tana va ruh sog‘lomligining kelib chiqishini ilmiy asoslab beradi. Abu Rayhon Beruniyning yuqorida bayon etilgan ilmiy asoslarida ota-onalarning bolaga e’tiborli bo‘lishlari yoki uning ehtiyojlari qondirilishi zarurligi, bolaga bo‘lgan munosabatdagi qattiq talabchanlikning salbiy ta’siri, ota-ona esa bolani qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishi, bolaning shaxsiga hurmat bilan qarab, uni yaxshi ko‘rishi, ko‘proq vaqtini bola bilan birga o‘tkazishga harakat qilishi, uning qiziqishlari va rejalarini qo‘llab-quvvatlashi zarurligi e’tirof etiladi. Aks holda, bolada xavotirlanish, jizzakilik, tushkunlik holatlari paydo bo‘lishiga va bu esa o‘z-o‘zidan undagi bilish jarayonlari rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, psixik hamda jismoniy rivojlanishdan orqada qolishga sabab bo‘lib, uning shaxsi to‘laqonli shakllanishiga salbiy ta’sir etishi ta’kidlanadi. Uning mazkur fikrlari bugungi kunga qadar o‘z ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

Sharqda “Shayx ar-rays” nomi bilan mashhur bo‘lgan buyuk olim Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” va “Amaliy hikmat” asarlarida oila, ota-ona hamda bola munosabatlariga oid qarashlari bayon etilgan, allomaning ilmiy qarashlaridagi o‘ziga xoslik shundaki, u o‘z asarlarida

Abu Nasr Forobiyning pedagogik va psixologik ilmiy qarashlari oilada bola shaxsi shakllanishida muhim ahamiyatga ega. O‘lmas ilmiy asarlar muallifi Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “E’tiqodlar va dinlar haqida”, “Mineralogiya” asarlarida ota-onaning bolaga munosabati va uning ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati haqida bir qancha muhim fikrlarni qayd etgan.

*Abu Ali ibn Sino
“Tib qonunlari”
asarida yozishicha:
“Tarbiyachining
diqqati bola
xarakterini
yaxshilashga,
bolaga qattiq
g‘azab, qo‘rquv,
munosabatdagi
og‘ir tabiatlilik
begona bo‘lishiga,
bola nimani
xohlashi va nimaga
intilishi ko‘rinib
turishiga hamda
uni oldida unga
yoqmaydigan
narsani
qilmaslikka
qaratilishi zarur.*

ota-ona bolaning jismoniy salomatligiga alohida e‘tibor berishi lozimligini ilmiy asoslab bergan. Ibn Sino bolani havosi o‘rta darajada, issiq va sovuq bo‘lmagan uyda uxlatishni, bola uxlatiladigan uy soya va qorong‘u bo‘lmog‘i kerakki, bu uyga quyoshning nuri tushmasligi, bola o‘rinda yotganda uning boshi tanasining boshqa bo‘laklaridan yuqorida turishi, bolaning yotar o‘rni bo‘yni, qo‘l-oyoqlarini va umurtqa ustunini qiyshaytirib qo‘yishidan saqlash lozimligini ta’kidlaydi. U ota-ona har bir bolaning jismoniy salomatligiga alohida e‘tiborli bo‘lishi lozimligini ta’kidlarkan, ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabatidagi mas’uliyatlilik, javobgarlik hissiga alohida urg‘u beradi. Ota-onaning bola shaxsini hurmat qilishi, nihol misol bolani qo‘pol so‘zlarsiz parvarishlash lozimligi, haddan ziyod hayajonlantirish ruhiy nosog‘lomlikka olib kelishi, ota-onaning vazifasi va xarakter xususiyatlari, ayniqsa, onaning munosabatlari qanday ko‘rinishga ega bo‘lishi zarurligi, oiladagi psixologik muhit ta’siriga e‘tiborni qaratadi.

Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida yozishicha: “Tarbiyachining diqqati bola xarakterini yaxshilashga, bolaga qattiq g‘azab, qo‘rquv, munosabatdagi og‘ir tabiatlilik begona bo‘lishiga, bola nimani xohlashi va nimaga intilishi ko‘rinib turishiga hamda uning oldida unga yoqmaydigan narsani qilmaslikka qaratilishi zarur. Buning yordamida ikki yoqlama foydaga erishiladi: birinchidan, bolada uning ilk bolalik davridan boshlab, kuchli ijobiy xarakter shakllanadi; ikkinchidan, bunday rivojlanish bolaning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Axir g‘azab kuchli qo‘zg‘atuvchi bo‘lib, og‘ir tabiatlilik holdan toydiradi, dangasalik esa hayotiy kuchlarni qisqartiradi”.

XI asrda yashab, ijod etgan zabardast adib Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” nomli didaktik asarida ota-ona hamda bolaning o‘zaro munosabati borasidagi fikrlarini psixologik va pedagogik jihatdan yoritib bergan [4]. “Ota o‘z farzandini tergap tarbiyalasa, uning fe‘l yo‘rig‘i yaxshi bo‘ladi, ota va onaning yuzi yorug‘ bo‘ladi.” “Ota farzandini bilimli va idrokli qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsa, uni doimo tergap tarbiyalashi kerak, buning tadbiri mana shu. Ota farzandini kichikligidan nobakor qilib qo‘ysa, farzandda gunoh yo‘q, barcha ayb otaning o‘zidadir. Ota farzandini o‘rgatib, tergap tarbiyalasa, ular ulg‘aygach, o‘g‘lim-qizim deb sevinsa arziydi. Agar nazorat qiluvchi farzand bo‘lmasa, bunday farzand yaramas va nobakor bo‘ladi. Bunday farzanddan umidingni uzaver” [3].

Yuqoridagi fikrlarda asosiy e‘tibor bolaning jismoniy, emotsional, intellektual rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarini yetarli darajada va sifatli ta’minlash kabi ota-onaning har tomonlama yordamiga qaratiladi. Ota-ona farzandining intizomli bo‘lishi xulq-atvoridagi buzilishning oldini olishga, shuningdek, uning yutuqlari bilan qiziqishi o‘z-o‘zini

to'g'ri anglashga asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Mas'uliyatni otaning zimmasiga yuklaydi. Bunda ota-onaning vakolatligi: birinchidan, bolaning yosh va individual xususiyatlariga oid umumiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishi; ikkinchidan, bolani turli vaziyatda tushunish, bolaning tuyg'ularini his eta olish, hamdardlik bildirish; uchinchidan, xulq-atvor komponenti bilan bog'liq ota-onaning bola bilan o'zaro ta'sirga savodli kirisha olishi zarurligini va uning samarasi haqidagi qarashlarni ilgari suradi. Oilada ota-onaning bolaga bo'lgan munosabati haqidagi psixologik qarashlar ulug' alloma Ahmad Donish merosida ham muhim o'rinni egallaydi.

Ahmad Donish bola shaxsi rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bola bilan ota-ona o'rtasidagi muomala madaniyati, deb hisoblaydi. Yuqorida sanab o'tilgan ulug' allomalarning bola o'ziga bo'lgan muomalada g'amxo'rlikni, mehr-muhabbatni his etib turishi lozimligi haqidagi fikriga qo'shilgan holda bolaga uning yosh xususiyatlariga yarasha muomala qilish, ota-ona bola bilan muomalada ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi zarurligi to'g'risidagi fikrlarni olg'a suradi.

Shayx Muslixiddin Sa'diy Sheroziy buyuk shoir, donishmand adib sifatida dunyoga mashhur bo'lgan. Uning "Guliston" va "Bo'ston" nomli pandnoma asarida o'z shaxsiy hayotiy tajribalari umumlashtirilib, qimmatli fikrlar bildirilgan. Sa'diy ota-onaning bolaga munosabati muammosiga ota-onaning oilada xushmuomala bo'lishiga, shuningdek, farzandlarning kelajagi uchun g'amxo'rlik qilishlari, bolani haddan ziyod erkatlashtirish lozimligini uqtiradi. U oilada ota-onalar bolani erkatlashining oqibati nimalarga olib kelishi haqida shunday yozadi: "Ota-onasi erkalatsa, nuqul juda ko'p qiyinchilikni ko'rgay o'g'il aql o'rgat-u, to'g'rilik, poklik, Sevib erkatlashtir, qil idroklik" [2]. Adib ota-ona munosabatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bolaning shaxsiy va ijtimoiy norasoligi yoki o'zining real yoshiga nisbatan kichik deb erkatlashga, haddan ziyod g'amxo'rlikka, achinish, hayotning qiyinchiliklaridan chegaralash hamda qat'iy nazorat qilish kabi munosabatlarga tanqidiy qaraydi. Chunki bunday munosabat bolaning qiziqishlari, havaslari, o'y-xayoli, tuyg'ularida buzilishga, shuningdek, muvaffaqiyatsiz muammolarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Ota-onalar bolalarini boladek emas, balki o'z majburiyatlariga ega, faoliyati natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lgan shaxs sifatida munosabatda bo'lishlari zarurligi haqida fikr yuritadi.

Yakuniy qism. Oilaviy munosabatlar har qanday bolaning hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bolalikda o'rnatilgan xatti-harakatlar modeli, hatto halokatli bo'lsa ham, keyinchalik ko'p jihatdan namoyon bo'ladi. Ota-onalar bolalar va o'spirinlarga maksimal ta'sir ko'rsatadigan odamlardir. Shuning uchun ularning asosiy vazifasi

Ahmad Donish bola shaxsining rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bola bilan ota-ona o'rtasidagi muomala madaniyati, deb hisoblaydi. Yuqorida sanab o'tilgan ulug' allomalarning bola o'ziga bo'lgan muomalada g'amxo'rlikni, mehr-muhabbatni his etib turishi lozimligi haqidagi fikriga qo'shilgan holda bolaga uning yosh xususiyatlariga yarasha muomala qilish, ota-ona bola bilan muomalada ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi zarurligi to'g'risidagi fikrlarni olg'a suradi.

minimal mojarolar va janjallar bilan uyg'un, yaxshi munosabatlarni shakllantirishdir. Yuqoridagi allomalarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, bolalarning bilish imkoniyatlari, ularning hayot faoliyatidagi umumiy muvaffaqiyatlari, konstruktiv ruhiy-asab holati va emotsional xotirjamlik kabi xususiyatlarning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, ota-onaning munosabati xususiyati bola shaxsi rivojlanishining asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk Sharq allomalarining pedagogik va psixologik qarashlarida ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.* – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt tarqqiyoti va xalq farovonligining garovi.* – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
4. Юнусов К.З., Шумкарова Ш.П., Ядгарова Х.И., & Арзикулова Г.С. (2016). Изменение качественных показателей тканей для постельного белья с различными поверхностными плотностями. *Молодой ученый, (1)*, 243-249.
5. Abu Ali Ibn Sino. *Tib qonunlari. 3 jildlik saylanma.* – Toshkent: Fan, 1992. – 453 b.
6. Shayx Sa'diy Sheroziy. *Guliston.* – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 1993. – 247 b.
7. Xayrullayev M.M. *Uyg'onish davri va Sharq mutafakirlari.* – Toshkent: O‘zbekiston, 1971. – 310 b.
8. Yusuf Xos Xojib. *Qutadg'u bilig.* – Toshkent: Fan, 1971. – 964 b.
9. Hikmatillayev H., Mansurov A. *Axloq-odobga oid hadis namunalari.* – Toshkent.: Fan, 1990. – 168 b.
10. А.Фитрат. *Оила ёки оилани бошқариш тартиблари.* – Тошкент: “Маънавият”, 2016. – 168 б.